



# INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS

HELSINKI

[universalconference.us](http://universalconference.us)

## **INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS**

Volume 02, Issue 07, 2025 (28-AUGUST)

### **Editor in Chief**

**Dr. Rajeev Ojha** - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

### **Editorial Team**

**Sunita Sarawagi** - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

**Dr Manjunatha LH** - Professor, REVA University, INDIA

**Asish Bera** - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

**Dr Sunildro LS Akoijam** - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

**Madan Mohan Singh** - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

**Dr. Anupam Singh** - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

**Dr. Sargam Bahl Walia** - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

**Narayan Pradhan** - Indian Association for the Cultivation of Science

**Ashok Kumar** - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

**Anjali Pal** - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

**Rajnish Joshi** - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

**Mukul Kumar** - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

**Prof. Kuruvilla Joseph** - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

**Prof. Yogesh C. Sharma** - D.Sc., FRSC, FBRs, FIAPS, FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

**Professor Indra Mani Mishra** - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

## **MAIN FUNCTIONS OF PHRASEMES AND PAREMIOLOGICAL UNITS IN EMPATHETIC SPEECH**

**Durdona Mirzoyeva Husan qizi**

Researcher at Termez State University, Uzbekistan

E-mail: [durdonamirzoyevaa@gmail.com](mailto:durdonamirzoyevaa@gmail.com)

**Abstract:** This research paper discusses the use and primary functions of phraseologisms and paremiological units within the structure of empathetic speech, which is one of the forms of ethical-aesthetic discourse. The arguments presented are supported with excerpts from literary texts.

**Keywords:** empathetic sema, phraseme, paremiological unit, speech, empathy, consolation, comfort, aesthetic speech, etc.

In today's globalized world, societal changes inevitably affect the field of science, particularly linguistics. As society and science evolve, new dimensions of various disciplines are continually discovered. Modern linguists pay special attention not only to the structure and functions of speech but also to its ethical-aesthetic genres. Speech units in the Uzbek language appear across various discourses. Accordingly, ethical-aesthetic types of speech in Uzbek can be classified as expressions of gratitude, irony, consolation, forgiveness, anger, affection, praise, empathy, protest, and reproach.

One of these genres, empathetic speech, has gradually moved from the realms of psychology and philosophy into linguistics, necessitating an interdisciplinary approach to its analysis. This growing interest among linguists highlights the need to study not only the speech itself but also the empathetic sema it conveys. Empathetic speech is primarily constructed to express concern, provide consolation, and offer comfort by acknowledging the emotions and inner state of the interlocutor.

According to the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language, the term *hamdardlik* (empathy/sympathy) is defined as “a feeling of shared sorrow, pain, or grief with someone else” and “to offer comforting words to alleviate someone's sadness or express solidarity with a grieving person.”

The inclination to help others, share kindness, and support those in hardship is deeply embedded in Uzbek culture and identity. Naturally, this tendency has shaped the emergence and frequent use of related linguistic expressions in everyday speech. In Islam as well, consoling those in distress and sharing their pain is considered a meritorious act.

Within empathetic speech, the use of introductory words, interjections, paremiological units, and phraseologisms serves to intensify the empathetic sema. Below are examples of emotionally charged utterances containing such expressions:

Pain, sorrow, and troubles are an inheritance from our ancestors. The poet wrote: “The world’s wealth is mine, but why this grief? / My body was irrigated with the waters of sorrow from the beginning.”

Enough, don’t cry, dear! Your heart must be bleeding from so much crying.

I would give my life for you, my dear child. Please don’t cry too much. Your father was a saintly man.

Don’t torment your soul so much, my daughter. Death comes to us all.

*(Dard, g’am, tashvishlar Atomizdan bizga meros. Shoir bunday misralarni bejizga bitmagan:*

*Jahon mulki manim mulkim, bilmam bu g’am nimandandur?*

*Azalda g’am suvi bilan sug’orilgan badandandur.*

*Bo’ldi, yig’lamang, o’rgilay! Yig’layverib jigar bag’ringiz xun bo’ldi-ku!*

*Jonim fido senga, o’rgilay, jon bolam, ko’p yig’layvermagin. Otaginang jannati inson edilar.*

*Bir joningizni bunchalik o’rtayvermang, qizim, o’lim har kimning boshida bor.)*

Here, expressions like “irrigated with the waters of sorrow,” “heart bleeding,” “tormented soul,” and “give my life” intensify the empathetic tone and increase the emotional-expressive depth of the speech.

Like phrasemes, paremiological units—such as proverbs and wise sayings—also enhance the persuasive power and aesthetic appeal of empathetic speech when used appropriately:

Death lies between the eyebrow and the eyelid, my child. These hardships come to everyone. Don’t let grief overcome you. Be patient.

Your father was a good man, my son, but what can we say? As the saying goes: “Death is certain, inheritance is lawful.”

Don’t be defeated by worldly sorrows: there is no river without flow, no world without death.

My child, don’t cry too much. Your mother’s time had come—she was almost 100. Life had become too difficult. After all, they say: “Pain is bad, but old age caused by pain is worse.”

*(O’lim qosh bilan qovoqning orasida bo’ladi, bolam, bu ko’rguliklar har kimning boshida bor. G’amga yengilma, sabrli bo’l.*

*Otangiz yaxshi inson edilar, o’g’lim, ammo nima ham deymiz “o’lim – haq, meros – halol”, degan gap bor.*

*Dunyo g'amiga bunchalik yengilmaslik kerak: o'tgusiz daryo, o'limsiz dunyo bo'lmas. Bolam ko'p yig'lamang, onangizning to'yi bo'lyapti: 5 kam 100 ga kirgandilar. Bundan buyog'i yashash ham qiyin bo'lib qolgandi. Axir aytishadi-ku, "dard yomon, darddan qarilik yomon" deb.)*

In addition to proverbs (maqol) and sayings (matal), wise expressions can also be used in empathetic speech, provided they carry an empathetic meaning. However, it is essential to fully understand their content before using them. Inappropriate use of any linguistic unit can diminish the quality of speech. For example, it would be inappropriate to use proverbs related to joy, fatigue, or aging at a funeral. Instead, proverbs with comforting and consoling meanings are more suitable.

Everyone leaves this world eventually, my dear—some sooner, some later. As our people say: "When death comes, even the judge dies."

My friend, I know separation feels worse than death, but please pull yourself together. Dear child, stop worrying so much—I can't bear it either. But what can I do? If I speak, I'll burn my tongue; if I stay silent, I'll burn my heart.

*(Bu dunyodan hamma o'tguvchi, o'rgilay, kimdir erta, kimdir kech. Axir xalqimizda matal bor: "Ajaj yetsa eshak o'ladi, qazo yetsa, qozi o'ladi".*

*Do'stim, bilaman, ayriliq – o'limdan qattiq, ammo o'zingni qo'lga ol.*

*Jon bolam, bo'ldi siqilavermagin, men ham chiday olmayapman. Lekin nima qilay? Aytsam tilim kuyadi, aytmasam – dilim.)*

### **CONCLUSION:**

Just as in other speech forms, the appropriate use of phraseologisms, paremiological units, and other linguistic elements in empathetic speech can significantly enhance its emotional power and aesthetic appeal. This allows the empathetic content to become more vivid and impactful. However, even the smallest inappropriately used expression can negatively affect the quality, expressiveness, and emotional tone of the speech.

### **REFERENCES:**

1. Ching H. K. Functions of Malaysian Condolences Written in Text Messages. *Pertanika, Journal of Social Science and Humanities*. June, 2015. – 24 p.
2. D. Haydarova. Ekspressiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi (ilmiy maqola) *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (xalqaro ilmiy jurnal)*, 2022. 226-227-b.
3. Dowlatabedi H., Mashhadi J. Comparative study of Sympathy and Condolences Use by Iranian and English native speakers in ceremonies: (a conversation analysis study). Tehran University, 2018. – 180 p.
4. Hozhaliev, I. "Kommunikativ imkoniyat strukturasi". *O'zbek tili va adabiyoti*. Toshkent, 2001. – 5 b.

5. Mirzoyeva D. O‘zbek tili madaniyatida hamdardlik. // Научные исследования и общественные проблемы, 2024. – Volume 2, Issue 1. – С. 9–11.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbek milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2006-2008. – B. 497–498.
7. Xamdamova X. Paremiologik birliklar va ularning stilistik imkoniyatlari. 6th – international conference on research in humanities, applied sciences and education hosted from berlin, germany sep. 30th 2022. – 6 p.

## **RESPUBLIKAMIZDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BANDLIKNI OSHIRISH**

**Norboyeva Dilnoza Darvishaliyevna**

Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası o'qituvchisi

**Saparboyeva Madina**

Jizzax politexnika instituti 531-22 guruh, 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada innovatsion tadbirkorlik sohasini rivojlantirish orqali aholining ish bilan bandligini oshirish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Innovatsion faoliyatni shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirishning afzalliklari va kamchiliklari yoritib berilgan, shu asosida muallifning taklif va tavsiyalari ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkorlik, ish bilan bandlik, mehnat munosabatlari, aholi daromadi va farovonligi, innovatsion salohiyat.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal va samarali rivojlanishi evaziga mikroiqtisodiyotda ro'y berayotgan o'zgarishlarga asoslanib, individual inson kapitalining birlamchi asosini ishchi kuchi emas, balki inson unumli qobiliyatlari tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Bugun biz davlat va jamiyat xayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta.

Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya - bu, kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak". Binobarin, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning, aniqrog'i tadbirkorlik faoliyatining asosiy lokomotivi - bu, innovatsion tadbirkorlikdir.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mehnat munosabatlari tajribasini o'rganish natijasida mamlakatimizda ham quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- korxonalar va tashkilotlarda kasbiy o'sish, martaba, kasbiy tayyorgarlik, raqobat borasida munosabatlarning qo'llab-quvvatlanishi;
- innovatsion tadbirkorlikni iqtisodiyotning turli sohalarida tashkil etilishi mehnatga layoqatli aholi orasida bandlik darajasining oshishi;
- korxonalar va tashkilotlarda bo'sh ish o'rinlari banki va yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni rag'batlantiruvchi axborotlar bazasining shakllanishi.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida innovatsion salohiyatni faol turdagi takror ishlab chiqarish manbaiga aylantirish uchun ish bilan bandlik va mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtirokini ta'minlash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 238,5 mingni tashkil qilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 9,4 % ga oshib borganligini ko'rish mumkin.

Jami tadbirkorlarning 41,6 % ayollar hisobiga to'g'ri keladi. Sohalar bo'yicha o'sish ko'rsatkichi hunarmandchilik (19,3 %), chakana savdo (9,2 %), maishiy xizmat ko'rsatish (8,3 %), boshqa faoliyat turlarida (7 %) ni tashkil qilgan.[2]. Shuningdek, O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini ta'minlash va daromadini oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida innovatsion, noan'anaviy ish joylarini ko'paytirish mehnat bozorini barqarorlashtirish imkoniyatlarini yanada keygaytiradi.

Shuningdek, innovatsion tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va unda bandlikka e'tibor qaratishni lozim deb hisoblaymiz, zero aholi turmush tarzining yaxshilanishiva daromadlarining oshishiga olib keladi. Akademik Q.X. Abdurahmonov fikricha innovatsion tadbirkorlik mehnat munosabatlarining zamonaviy shakli bo'lib, ham aksiyadorlik jamiyati miqyosida, ham kichik korxonada shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirilishi mumkin.

Jumladan, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini kichik tuzilma - kichik innovatsion korxonasi sifatida amalga oshirishning o'z afzalliklari va kamchiliklari mavjud, innovatsion faoliyatni shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirishning afzalliklari va kamchiliklari guruhlanadi.

### **Innovatsion faoliyatni shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirishning afzalliklari va kamchiliklari**

#### ***Innovatsion faoliyatni shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirishning afzalliklari***

- Biznesni tashkil etishda davlat tomonidan ro'yxatga olishning yengilligi
- Bankda hisob varaqni ochish tezkorligi
- Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi va soliq stavkalarining pastligi
- Tashqi moliyalashtirish manbalarini topishning murakkabligi
- Hisobotlarning soddaligi
- Biznesni yuritishda mustaqillik va yuksak
- samaradorlikka erishish uchun motivatsiyaning kuchliligi

#### ***Innovatsion faoliyatni shaxsiy tadbirkor sifatida amalga oshirishning kamchiliklari***

- Moliya-xo'jalik, innovatsion va boshqaruv funksiyalarining qo'shib olib borilishi
- Shaxsiy tadbirkorlikni amalga oshirishda kredit olish uchun garov masalasi murakkabligi

- Tashqi moliyalashtirish manbalarini topishning murakkabligi
- Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulot uchun mijoz topishning qiyinligi
- Majburiyatlar bo'yicha to'liq shaxsiy ma'suliyat
- KBXTda ish bilan bandlikning zamonaviy shakllarini tadbiq etish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik.

Iqtisodiy, ijtimoiy, migratsion, demografik, munosabatlar ayollarning ish bilan bandligi samaradorligini oshirishda gender tengligi darajasida o'rganilishi lozimki, bu jarayon ularning nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarishda ish bilan bandligi balki, ularning oilaviy yumushlar va farzandlar tarbiyasi bilan mashg'ulligini uyg'un tarzda olib borishlariga sharoitlar yaratish kerak.

Makroiqtisodiy o'zgarishlarning asosiy belgilaridan biri yangi ish joylarini tashkil etish bo'lib ishsizlik darajasini kamaytirish, birinchi navbatda, ish kuchi taklifidan kelib chiqqan holda yangi ish joylari yaratishga bog'liqdir. Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratishning o'ziga xos tizimi yaratilgan bo'lib yangi ish o'rinlari investitsiya dasturlari, mahalliyashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash tarmoq dasturlari, kasanachilikni rivojlantirish hisobiga yaratilmoqda.

Ayollar va erkaklarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan bandligi o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi, jumladan, erkaklar mazkur faoliyatni sanoat, qurilish, savdo, xizmat ko'rsatishda maqbul bo'lgan tarmoq deb hisoblasalar, ayollar xizmat ko'rsatish, savdo, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarini afzal ko'radilar. Qishloq joylarida esa ayollar mazkur sohalarida ko'proq kasanachilikni ma'qul deb hisoblaydilar va bu borada ularni yaqin do'stlari, turmush o'rtog'i, oila, ayollar uyushmalari qo'llab-quvvatlaydilar.

Ayollarga mos ish o'rinlarini ishlab chiqarishning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida yaratish yuqori unumdorlikni ta'minlaydi.

Bundan kelib chiqqan holda e'tirof etish kerakki, ayollarning ayniqsa, mehnat bozoriga birinchi bor kirib kelayotgan qizlarning mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirishda real va moliyaviy sektorlar bo'yicha ish bilan bandligini ta'minlashning aniq tartiblarni belgilash orqali ularning o'z ish o'rinlaridagi qo'nimlilikini ta'minlash hamda bu borada ish beruvchilar, nodavlat notijorat tashkilotlari ma'sulligini oshirish, mehnatni tashkil qilish va boshqarishning aynan

ayollar manfaatiga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Respublikada oilaviy tadbirkorlik ayollarning ish bilan bandligini iqtisodiy tartibga solishda muhim imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Ayollar tadbirkorligi, ayniqsa oilaviy tadbirkorligini rivojlantirish uchun quyidagi samarali mexanizmlarni tatbiq etish lozim. Innovatsion tadbirkorlikni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida me'yoriy-qonuniy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish, tijorat banklari,

sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish hamda xizmatlar ko'rsatishni yanada takomillashtirish, qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish sohalarida ayollar uchun tadbirkorlik ish joylarini yaratish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ularning oilaviy tadbirkorligi uchun iqtisodiy imtiyozlar taqdim etish.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 29 dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasi. -T: "O'zbekiston", 2018.- 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlari. [https://www Stat.uz](https://www.Stat.uz).
3. Norboyeva, D. D. (2023). ZAMONAVIY SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI BOSHQARISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 167-171.
4. Норбоева, Д. Д. (2023). ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИДА УРБАНИЗАЦИЯ ВА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МЕҲНАТ БОЗОРИГА ТАЪСИРИ. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 156-162.
5. Norbayeva, D. D. (2023). MENEJMENTDA BOSHQARUV USLUBINI JORIY ETISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTDAN FOYDALANISH AHAMIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 163-166.
6. Darvishaliyevna, N. D. (2023). INNOVATION RIVOJLANISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI BOSHQARISH. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 62-66.
7. Darvishaliyevna, N. D. (2023). BOSHQARUV USLUBLARINI TATBIQ ETISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTDAN FOYDALANISH ZARURATI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 21-25.
8. Darvishaliyevna, N. D. (2023). MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH HAMDA YANGI ISH JOYLARINI YARATISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(5), 68-72.
9. Darvishaliyevna, N. D. (2019). Indo–Asian Journal of Multidisciplinary Research (IAJMR).
10. Darvishaliyevna, N. D. (2021). PRODUCT QUALITY MANAGEMENT IN THE ENTERPRISE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 168-170.
11. Норбоева, Д. (2019). КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ. Экономика и социум, (9 (64)), 208-210.
12. Норбоева, Д. Д. (2019). МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ. Экономика и социум, (9 (64)), 204-207.
13. Darvishaliyevna, N. D. (2024). Corporate Position, Risk and Brand in Achieving Financial-Economic Stability. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(4), 613-619.

## **O'ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTINING JAMIYATDAGI ROLI**

***Ravshan XIDOYATOV,***

*Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi dotsenti.*

[\*rxidoyatov@mail.ru\*](mailto:rxidoyatov@mail.ru)

***Ubaydulla XOLMURZAEV,***

*JizPI Servis fakul'teti, Professional ta'lim yo'nalishi 552-23 gurux talabasi.*

**Annotatsiya:** Mahalla azaldan hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tinchlik- osoyishtalik, ahillik va hamjihatlik, ma'rifat hamda tarbiya maskani bo'lib kelgan. Shunisi e'tiborga molikki, bugungi kunda ham mahalla odamlar o'rtasida mehr-oqibatbar davomligini ta'minlash, milliy qadriyatlarimizni mustahkamlash, odamlarga har tomonlama ko'mak berish bilan samarali faoliyat olib borayotgan tuzilmaga aylandi. Ushbu maqolada bugungi kunda mahalla institutining jamiyatdagi roli, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahallaning roli haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Mahalla, oila, ma'naviy olam, kamolot, ijodiy qobiliyat, milliy g'urur, milliy madaniyat vatanparvarlik, ta'lim, shaxs erkinligi.

**Аннотация:** В этой статье излагается роль махалли в подготовке семьи современной молодёжи, основные черты гармонично-развитой личности, как гуманизм, патриотизм, любовь и уважение к членам семьи, являются основными звеньями в процессе воспитания молодого поколения, то что нам нужно восстановить наши обычаи, то есть наши прекрасные и неповторимые обычаи, чтобы они вернулись к нашему браку в виде покровительства согласно потребностям времени, но сохранили свой первоначальный смысл, то есть были осуществлялись добровольно, молодые люди не должны терять чувства чести, достоинства, надежды и гордости.

**Ключевые слова:** махалля, национальная гордость, национальная культура, семейное воспитание, свобода личности, празднование, церемония, преданность, уважение, образование, воспитание. творческое мастерство.

Mahalla azaldan hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tinchlik- osoyishtalik, ahillik va hamjihatlik, ma'rifat hamda tarbiya maskani bo'lib kelgan. Shunisi e'tiborga molikki, bugungi kunda ham mahalla odamlar o'rtasida mehr-oqibatbardavomligini ta'minlash, milliy qadriyatlarimizni mustahkamlash, odamlarga har tomonlama ko'mak berish bilan samarali faoliyat olib borayotgan tuzilmaga aylandi.

Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashga o'rgatib, bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonchli ko'prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz. Ayni paytda, yurtimizda yashayotgan har bir inson, millati, tili va dinidan qat'i nazar, o'z hayotini, quvonchu tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur eta olmaydi.

O'zbekistonda fuqarolar o'zini -o'zi boshqaruvini amalga oshirishda mahalla o'rnak bo'ladi. Mahalla o'zbeklarning tarixan shakllangan jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish uchun yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatish makoniga aylangan. U o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an'analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga etkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ularni ezgulik yo'lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta va muqaddas oila hisoblanadi. "[1].

Mahalla sharqona an'analar, urf-odatlar va marosimlarni jamoada amalga oshirib, avloddan-avlodga etkazib kelmoqda. Mahalla faollari an'anaviy, oilaviy to'ylar, bayramlar, motam marosimlarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'lishadi. Ularni dabdabasiz, isrofgarchiliksiz, ortiqcha xarajatlarsiz, ixcham qilib o'tkazish, mahalla oqsoqoli va maxsus mutasaddi komissiyalarga bog'liq. Mahallada o'tayotgan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining kattayu kichigi birday mas'uldir. Bunday tadbirlarda kattayu kichikka, boyu kambag'alga, mansabdor-u oddiy fuqaroga bir xil hurmat va ehtirom ko'rsatiladi. Chunki mahallaning barcha a'zosi yagona, teng huquqli va mustahkam bitta oila hisoblanadi. Shu bilan birga mahalla tashabbuslar markazi ham desak xato qilmagan bo'lamiz. "[2].

Sharqona oila hamisha mahallaning uzviy bir bo'lagi, uning ajralmas bir tarkibiy qismi deb anglangan. Mahalladan ajralib qolgan oila doimo tanqid ostiga olinib, uni mahalla ish-yumushlariga, marosimlariga qayta faol ishtirok etishga da'vat etilgan. Mahalla jamoasi va oqsoqollari guruhiga quloq tutmagan, bebosh va nopok oilalar ko'pchilik talabi bilan hatto boshqa yoqqa badarg'a qilinib, mahalladan chetlashtirilgani ham tarixdan ma'lum.

Bugungi mahalla bundan 7-8 yil avvalgisidan tubdan farq qiladi. Prezidenimiz tashabbusi bilan mahallaning jamiyatdagi nufuzi va rolini oshirish, mahallani joylardagi muammolarni hal etadigan chinakam tizimga aylantirish, xususan, mahallabay ishlash tizimini kuchaytirish, mahalla fuqarolar yig'inlari mas'ullarining ish samaradorligi hamda mas'uliyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimizning 2023 yil 11-sentyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston-2030 strategiyasi”da muhim ustivor yo‘nalishlar qatorida xalq xizmatidagi davlat tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli sa‘y - harakatlar belgilangani e‘tiborga molik. Uning maqsadi aholi farovonligini ta‘minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirilishi ko‘rsatib o‘tildi.”[3].

Prezidentimizning 2023 yil 21 dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, mahalla obodligini ta‘minlash, “Obod mahalla”, “Obod ko‘cha”, “Obod xonadon” mezonlarini joriy etishda aholining faol ishtiroki va mas‘uliyatini oshirish choralarini ko‘rish, mahallalardagi muammolarning o‘z vaqtida va samarali echilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa‘y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo‘naltirish, mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari va boshqa mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishini ta‘minlash, mahallalarning moddiy-texnika ta‘minotini yaxshilash, ularga ajratiladigan mablag‘larni markazlashgan tarzda taqsimlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, mahalla mas‘ullarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalari shakllanishiga ko‘maklashish vazifalari belgilab berilganligi ta‘kidlandi.[4].

Davlatimiz rahbarining topshirig‘i bilan mahallalarda “ettilik” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularga quyidagi asosiy vazifalar yuklangan:

- mahalla raisi – ehtiyojmand oilalarga uy-joyini yaxshilashga ko‘maklashish;
- hokim yordamchisi – ishsizlarga ish topishga ko‘maklashish;
- yoshlar etakchisi – yoshlarni sport, musiqa va to‘garaklarga jalb etish;
- xotin-qizlar faoli – ayollarni tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchi -likka jalb qilish;
- profilaktika inspektori mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta‘minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishda ko‘maklashish;
- soliq xodimi – mahalladagi imkoniyatlarni ishga solib, soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirishga hamda o‘zini o‘zi band qilganlarga kichik biznes toifasiga o‘tishga ko‘maklashish;
- ijtimoiy xodim – yolg‘iz keksa, nogiron va boshqa muhtojlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kabi aniq vazifalar bilan shug‘ullanish.”[5].

Joriy etilgan “Mahalla ettiligi” tizimi ana shu yo‘nalishdagi ishlarni yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o‘zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga echim topamiz desak, bizning yagona yo‘limiz – mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro‘yini qancha ko‘tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo‘ladi”[6].

Xalqimizda: “Bir bolaga etti mahalla ota-ona”, degan gap bejiz aytilmagan. Farzandlarimizning ma’naviy barkamol insonlar bo‘lib voyaga etishi, yosh oilalarning mustahkam oyoqqa turib olishida ushbu tuzilmaning rolini yanada oshirish, “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” tamoyili asosida boshlangan ezgu ishlarimizni izchil davom ettirish bugungi kun talabidir.”[7].

Ayni vaqtda aholining ehtiyojmand qatlami bilan manzilli ish olib borish, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yurtdoshlarimiz muammolarini “xonadonbay” hal etishda, hech shubhasiz, mahalla organlari muhim o‘rin tutadi. “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” degan muhim tamoyilni amalga oshirishda avvalo mahalla tizimiga, mahalla faollari va fidoyilarining ulkan salohiyatiga tayanilmoqda. Mahalla bir tomondan har tomonlama rivojlangan shaxsni, ya’ni axloqiy va mehnat tarbiyasi asosida tarbiyalashni, ikkinchi tomondan yosh insonni oilaviy hayot uchun zarur bo‘lgan bilim va malaka bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Yoshlar turmush jarayonida katta avloddan o‘zga jinsdagi insonga munosabat haqida, nikoh haqida, oila haqida taqlidan ancha bilimlarni o‘rganib oladi, ahloq mezonlarini o‘zlashtiradi. Ularda o‘rtoqlik, do‘stlik, or-nomus, qadr-qimmat tuyg‘usi erta rivojlana boshlaydi. Bu esa ularning oliy insoniy tuyg‘u-muhabbat haqida, nikoh-oila munosabatlari haqida tasavvurlarining to‘g‘ri shakllanishiga yordam beradi.”[8].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mahallada kelajak avlodimiz tarbiya topadi. Bu erda o‘sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas’uldir. Shuning uchun ham “Bir bolaga etti qo‘shni ota-ona”, “Bir bola tarbiyasi uchun etti mahalla ota-ona” kabi naqlar bejiz paydo bo‘lmagan. Yoshlarning har bir hatti-harakati barchaning diqqat-markazida bo‘ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi-barkamol insonni tarbiyalab etishtirishning negizidir. Xulq-odobi yaxshi har tomonlama namunali farzand mahallaning obro‘sidir, noqobil, axloqan nomaqbul farzand esa mahalla uchun qora dog‘dir. Mahalladan yurtga taniqli insonlar etishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod-ajdodlari g‘ururlanadilar.”[9].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Qarang. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2023yil, PF – 209- son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan 2023 yil 26 sentyabrda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishdagi nutqi. <https://www.gazeta.uz>.
4. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. T.: “O‘zbekiston”, 2016. 10 b.
5. Хидоят, Р., & Тўхтаев, З. (2022). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ НОВОЙ УЗБЕКСКОЙ ЭКОНОМИКИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 35.
6. ХИДОЯТОВ, Р. (2023). МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА МУҲИМ ОМИЛ.
7. Yaхуауевна, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 2(3), 23-26.
8. Yaхуауевна, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. *AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT*, 2(3), 37-40.
9. Fayzullaeva, K. A. (2019). TARIXIY QADRIYATLARGA TO‘G‘RI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH. *MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS*, 111.

## **MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA CHEGARA MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH ISTIQBOLLARI**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
Amaliy siyosatshunoslik yo‘nalishi magistranti

**Mamatqulova Maftuna Akmaljon qizi**

Ilmiy rahbar: **Jo‘rayev Qodir Asadovich**

tarix fanlari doktori, professor

[jaloliddinovam@gmail.com](mailto:jaloliddinovam@gmail.com) +998937562201

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Markaziy Osiyo davlatlarida chegara muammolari va ularni hal qilish istiqbollari o‘rganilib tahlil qilingan. **Madsad** Markaziy Osiyo chegara muammolarini o‘rganish **jarayonida mavjud chegara muammolari mohiyatini ochib berish, ushbu muammolarning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashga ta‘sirini aniqlash va bu borada ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.**

**Kalit so‘zlar:** Markaziy Osiyo, chegara davlatlari, milliy-hududiy demarkatsiya, Sovet Ittifoqining parchalanishi, hududiy-ma‘muriy muammolar.

**Sabab:** Respublikalar o‘rtasidagi chegara nizolarining asosiy sabablaridan biri SSSR Oliy Soveti tomonidan o‘rnatilgan chegaralarni qonuniy tan oladigan qonunlarning yo‘qligi edi. 1924-yildan buyon chegaralarni belgilashda turli etnik guruhlarining ko‘p asrlik istiqomat qilishlari hisobga olinmaganligi respublikalar mustaqillikka erishgandan so‘ng chegara chalkashliklariga sabab bo‘ldi va mahalliy aholining normal hayotiga to‘sqinlik qildi. O‘z milliy davlatlaridan tashqarida qolgan etnik guruhlar yana bir muammo va respublikalar o‘rtasidagi da‘volar uchun sabab bo‘ldi.

Markaziy Osiyoda chegara muammolari paydo bo‘lishining qo‘shimcha sabablaridan biri bu siyosiy klanlarning ta‘siri va mahalliy rahbarlarning shaxsiy ambitsiyalaridir. Bu omillar davlatlar o‘rtasidagi chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini murakkablashtiradi. Yer uchastkalari va hududlarni ijaraga berish amaliyoti chegaralarni o‘zgartirishga ta‘sir qilishda davom etmoqda, garchi shunga o‘xshash jarayonlar Sovet davrida ham sodir bo‘lgan. Biroq, yagona davlat mavjudligi va aniq belgilangan respublikalararo chegaralarning yo‘qligi sharoitida bu muammo sifatida qabul qilinmadi. Postsovet davrida transport va boshqa infratuzilmalardagi investitsiya loyihalari keskinlikning yangi manbasiga aylandi. Sovet davrida janubiy respublikalarning shimol bilan aloqasi yaxshi emas edi, chunki yaxlit transport tarmog‘i mavjud emas edi. Ittifoq parchalanganidan so‘ng milliy temir yo‘l va avtomobil yo‘llarining yangi tashkil etilgan davlatlar chegaralari orqali o‘tishi bahs mavzusiga

aylandi, chunki ularni qurishda chegaralarning kelajakdagi xalqaro maqomi hisobga olinmagan. Bu qarama-qarshiliklar ayniqsa Qirg'iziston va Tojikiston, shuningdek, Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasidagi chegara hududlarida keskinlashdi. Shunday qilib, siyosiy ambitsiyalar va infratuzilma loyihalaridan tortib tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlargacha bo'lgan omillarning kombinatsiyasi Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasida barqaror va o'zaro tan olingan davlat chegaralarini o'rnatish jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

**Muammo:** 1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi tektonik hodisa bo'lib, xalqaro tizimning tubdan qayta tashkil etilishiga, jumladan, Markaziy Osiyoda yangi mustaqil davlatlar: Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonning paydo bo'lishiga olib keldi. Biroq, ular suverenitet bilan bir qatorda hal qilinmagan hududiy-ma'muriy muammolar majmuasini, birinchi navbatda, aniq bo'lmagan chegaralarni meros qilib oldilar, ular ba'zi hollarda keskin davlatlararo qarama-qarshiliklar va nizolar manbai bo'ldi. SSSRda ittifoq respublikalari o'rtasidagi chegaralar rasmiy ma'muriy xarakterga ega bo'lib, davlat chegaralari sifatida qabul qilinmas edi. Respublikalar o'rtasida tovarlar, mehnat va resurslar erkin harakatlanar, suvdan foydalanish, yer va aloqa masalalari markazlashgan holda tartibga solinardi. 1991-yildan keyin bu ma'muriy chiziqlar to'liq delimitatsiya va demarkatsiya qilinmasdan, davlat chegaralari maqomida amalda "muzlatilgan" edi.

Sovet davrida ko'plab chegaralar haqiqiy etnik, geografik va iqtisodiy omillar hisobga olinmagan holda chizilgan, bu esa 1920-yillardagi milliy-hududiy demarkatsiya siyosatining natijasi edi. Aholi zichligi, etnik mozaikasi va iqtisodiy o'zaro bog'liqligi yuqori bo'lgan Farg'ona vodiysida vaziyat ayniqsa og'ir edi. Sovet Ittifoqi parchalanib, 1991-yilda mustaqillikka erishgach, Markaziy Osiyo davlatlari avvallari ma'muriy xarakterga ega bo'lgan milliy chegaralarini qayta ko'rib chiqish va himoya qilish zaruriyatiga duch keldi. Demarkatsiyaning aniq mexanizmlarining yo'qligi, shuningdek, sovet davridan meros bo'lib qolgan hududiy, etnik va huquqiy qarama-qarshiliklar chegara nizolari va mahalliy nizolarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu sabablarni bir nechta asosiy yo'nalishlarga bo'lish mumkin Sovet Ittifoqidan keyingi suverenitet ma'muriy chiziqlarni qat'iy davlat chegaralariga aylantirdi, bu etnik va resurs qarama-qarshiliklarini yanada kuchaytirdi. Ushbu mojarolarni hal qilish chegaralarni to'liq huquqiy jihatdan belgilashdan tortib, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarni jalb etgan holda transchegaraviy hamkorlikning barqaror mexanizmlarini yaratishgacha bo'lgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

**Yechim:** Murakkab tarixiy merosga, jumladan mustamlaka demarkatsiyasi, sovet etno-hududiy arxitekturasi va postsovet nizolariga qaramasdan, Markaziy Osiyo davlatlari so'nggi yillarda chegara nizolarini pragmatik, tinch va o'zaro manfaatli tarzda hal etish istagini tobora ko'proq namoyon etmoqda. Ushbu siljish mintaqaviy siyosiy

madaniyatning o‘zgarishini aks ettiradi, asosiy e’tibor qarama-qarshilikdan hamkorlik va institutsional muloqotga o‘tadi.

Ushbu tendensiyaga yordam beradigan asosiy ichki omillar:

- Transchegaraviy xavf-xatarlar sharoitida mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash zarurati;
- Savdo, logistika va investitsiyalar uchun barqaror va ochiq chegaralarni talab qiluvchi barqaror iqtisodiy rivojlanish;
- Barqaror chegaralar suverenitet va qonuniylik ramzi bo‘lgan milliy davlat qurilishi.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish formatlarini faol ilgari surayotgan global va mintaqaviy ishtirokchilarning (jumladan, BMT, KXShT, ShHT, YeI va YXHT) e’tiborini kuchaytirish;

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish muammolari muammo bo‘lib qolmoqda, biroq ayni paytda imkoniyatdir. Mintaqaning hozirgi voqeligi qarama-qarshilik merosidan pragmatik, o‘zaro manfaatli va institutsional hamkorlikka o‘tishni taqozo etmoqda. Chegara masalalarini muvaffaqiyatli hal etish siyosiy iroda, xalqaro huquqiy me’yorlar, ijtimoiy inklyuzivlik va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikni o‘zida mujassam etgan kompleks yondashuv bilangina mumkin bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, mintaqa qarama-qarshilik maydonidan barqaror hamkorlik va integratsiya makoniga aylanishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Аманжолова, З.А., Атанов, М.М., Турарбеков, Б.Ш. Правда о государственной границе Республики Казахстан. Алматы: Издательский дом «Жибек жолы». 2014. С.18.
2. Кадыркулова А. Проблемы безопасности человека и сотрудничества в Центральной Азии // *Reforma*. 2001. – Т.3. – № 11. – С. 72-79.
3. Pietkiewicz M. Borders of the Central Asian countries under the international law // *Nowa Polityka Wschodnia*. 2017. - Vol. 4. – No. 15. – С. 30–42.
4. Колосов, В.А., Себенцов, А.Б. Государственные Границы на Постсоветском Пространстве.// отв. ред. С.В. Севастьянова, Ю. Лайне, А.А. Киреева. Владивосток: Дальнаука, 2016. С.226.
5. Polese, A., & Horák, S. (2018). *Identity and Politics in Central Asia and the Caucasus*. Routledge.
6. Megoran, N. (2004). *The Critical Geopolitics of the Uzbekistan–Kyrgyzstan Boundary Dispute*. *Political Geography*, 23(6), 731–764.

## **ARABIC BORROWINGS IN UZBEK MEDICAL TERMINOLOGY: BASED ON ABU ALI IBN SINA'S CANON OF MEDICINE**

**Umriniso Mahksud qizi Bahkrieva**

Doctoral Student, Department of Uzbek Linguistics and Journalism, Bukhara State  
University, Uzbekistan

Email: [u.m.baxriyeva@buxdu.uz](mailto:u.m.baxriyeva@buxdu.uz) Phone: +998 91 414 17 12

**Abstract.** This thesis analyzes the linguistic features of Arabic-origin medical units used in Abu Ali Ibn Sina's Canon of Medicine. The study focuses on how these medical terms entered the Uzbek language, their semantic shifts, polysemy, homonymy, and contextual usage. Particular attention is given to the role of Arabic borrowings in shaping the historical layers of Uzbek medical terminology.

**Keywords:** Medical terminology, Arabic borrowings, Canon of Medicine, Avicenna, linguistic analysis, semantics, Uzbek language.

**Introduction.** The development of the lexical richness of the Uzbek language has been significantly influenced by external sources, especially Arabic. This influence is particularly evident in the domains of religion, philosophy, science, and notably in the language of medicine. In the Islamic world, medical knowledge was primarily developed in Arabic, drawing upon ancient Greek and Indian sources, with Arabic functioning as the primary language of science at that time. Medical texts composed in Arabic were later translated into various languages, including Uzbek, and many Arabic medical terms were directly assimilated into the Uzbek lexicon.

One of the most valuable scientific heritages that reflects this process is Abu Ali Ibn Sina's Canon of Medicine (Al-Qanun fi't-Tibb). This monumental work holds a unique place in the history of Eastern and Western science. It synthesized centuries of medical experience, integrating Greek, Indian, and Arab knowledge into a theoretically and practically coherent system. The Canon served not only as a principal medical textbook of its time but also as a primary reference for several centuries thereafter. Beyond its significance in diagnosing and treating diseases, it also holds considerable linguistic value.

The medical terminology used in the Canon, particularly Arabic-derived terms, has left a lasting imprint on the formation of Uzbek medical vocabulary. These terms have not only preserved their original medical meanings but have also acquired additional semantic layers over time, often becoming polysemous or homonymous. Some have even permeated artistic and colloquial language, functioning as expressive-emotive

tools. Thus, these terms possess not only historical and scientific value but also linguistic, stylistic, and sociocultural significance.

From a linguistic perspective, Arabic-origin medical terms should not be viewed merely as translated elements, but as multifunctional units that have been deeply integrated into the semantic system of the Uzbek language, enhancing its expressive capacity. In particular, the terminology found in *The Canon of Medicine* reveals the historical roots of the scientific Uzbek medical lexicon.

This thesis focuses on the linguistic analysis of Arabic-origin medical terms found in Ibn Sina's *Canon of Medicine*. The study examines historically rooted, semantically enriched medical units that have been fully assimilated into the Uzbek language, tracing their Arabic origins. Special attention is given to their current semantic load, connotative meanings, lexical functions, and contextual usage in modern Uzbek. The occasional use of such terms in oral and literary discourse as expressive linguistic devices is also discussed.

**Analysis.** Within the scope of this research, several Arabic-derived medical terms such as *zotiljam* (inflammation of the pleura), *zotirria* (inflammation of the lung tissue), *imtilo* (congestion-related disorder), and *savdoviy* (a condition related to sexually transmitted diseases) have been selected as primary objects of linguistic analysis. These terms are examined in terms of their semantic development in the Uzbek language, their roles in both colloquial and medical terminological systems, their potential semantic shift or narrowing, and, in some cases, their expressive function in spoken or informal usage.

*Zotiljam* is an Arabic-origin term composed of *zot* (essence/owner) and *jam* (gathering, accumulation). In medical usage, it refers to pleuritis or, in some cases, pneumonia. In *The Canon of Medicine*, Ibn Sina describes *zotiljam* as a severe illness manifested by high fever, chest pain, and difficulty in breathing. The *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language* defines it as “inflammation of the lungs, an infectious disease of the lungs.” In modern medicine, it corresponds to pneumonia or pleuritis. The term is still used in colloquial Uzbek, often carrying a strong emotional charge. Compared to its equivalents in other languages (e.g., Russian: *воспаление лёгких*, English: lung inflammation), *zotiljam* stands out due to its historical depth and cultural resonance in the Uzbek language.

*Zotirria* is also of Arabic origin, composed of *zot* (essence) and *ria* (breath/lung). Ibn Sina used it to describe a deeper inflammation of lung tissues, including the interstitial areas. Unlike *zotiljam*, which refers to pleural inflammation, *zotirria* involves the bronchial and interstitial tissues. According to *The Canon*, symptoms include chest pain, labored breathing, and sputum production. In modern medical terminology, this

condition aligns with interstitial pneumonia (Latin: *Pneumonitis interstitialis*, Russian: *интерстициальное воспаление легких*). Though not commonly used in contemporary Uzbek, the term has entered the lexicon via historical texts, underscoring its relevance for diachronic linguistic study.

Imtilo is derived from the Arabic *imtala'a*, meaning “to be filled.” In Ibn Sina’s classification, it describes the pathological accumulation of fluids or blood in a specific organ. Medically, it may correspond to pleural effusion (*effusio pleurae* in Latin, *плевральный выпот* in Russian), hypertension, or congestive organ conditions. In *The Canon*, *imtilo* is associated with the dominance of cold-moist humors, gradually leading to reduced organ function. Although not widely used in modern Uzbek medical discourse, it is linguistically significant for understanding historical perspectives on metabolism-related diseases. Semantically, the term has narrowed over time and is now largely obsolete in practical usage, though it remains important for historical and lexical analysis.

*Savdoviy* stems from the Arabic *sawda*, referring to “black bile” or a harmful fluid. In *The Canon*, this term is applied to chronic, contagious conditions, particularly those transmitted sexually. In modern medicine, these are known as STIs (Sexually Transmitted Infections) or venereal diseases (Latin: *morbi venerei*, Russian: *венерические болезни*). The term *savdoviy* often carries a negative moral connotation and is used pejoratively in colloquial speech. It also functions as an expressive and metaphorical unit, reflecting public attitudes toward sexually transmitted illnesses. Linguistic analysis shows that *savdoviy* has undergone semantic expansion and remains active in metaphorical and emotionally charged speech contexts.

**Conclusion.** The Arabic-derived medical terms used in Abu Ali Ibn Sina’s *Canon of Medicine*—such as *zotiljam*, *zotirria*, *imtilo*, and *savdoviy*—form a significant layer of historical medical vocabulary in the Uzbek language. These lexical units entered Uzbek primarily through scientific translation and intellectual influence, particularly in the field of medicine. Their semantic, lexical, and stylistic characteristics continue to manifest in different ways within modern language usage.

The analysis reveals that: These terms encapsulate the core medical concepts of classical Arabic medicine and have played a vital role in the development of Uzbek medical discourse;

Each unit has undergone various degrees of semantic broadening or narrowing over time;

While many of these terms have been replaced by modern equivalents in today’s medical terminology, they still retain historical, stylistic, and expressive significance;

Therefore, the linguistic study of Arabic medical borrowings found in The Canon of Medicine contributes not only to understanding the historical stages of the Uzbek language's development but also to identifying the foundational sources of contemporary medical vocabulary.

This research may serve as a valuable foundation for the further scientific development and refinement of the lexical-semantic system of Uzbek medical terminology.

### **REFERENCES**

1. Avicenna (Abu Ali ibn Sina). (2020). The Canon of Medicine (Vols. 1–2). Tashkent: Abu Ali Ibn Sina Publishing House.
2. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language (2006). (5 vols.). Tashkent: Uzbekistan National Encyclopedia State Scientific Publishing House.
3. Qodirov, A., & Qo'chqorov, B. (2009). Russian–Uzbek Medical Dictionary. Tashkent: O'zbekiston Publishing House.
4. Superanskaya, A. V. (2007). General Terminology: Issues of Theory. Moscow: Nauka.
5. Danilenko, V. P. (1977). Russian Terminology: A Linguistic Description. Moscow: Nauka.
6. Mirzayev, M. (2021). Medical Terminology and Its Linguistic Features. Tashkent: Science and Technology.
7. Uzbek Soviet Encyclopedia. (1980). Articles: Leprosy (Moxov), Palpitation (Xafaqon), Pneumonia (Zotiljam). Tashkent: Academy of Sciences of the Uzbek SSR.
8. Dorland's Illustrated Medical Dictionary (33rd ed.). (2023). Elsevier.

